

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕҢДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа соз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

1/3-сан 2023

март-апрель

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұја АЙТБАЕВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭЩАНОВА



Karimjonov A. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asosida boshlang'ich ta'limgizni takomillashtirish davr talabi	308
Matupayeva Sh. Z. Inklyuziv ta'limgizning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati	312
Ochilov F. I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish imkoniyatlari	319
Jabborova O., Saparbayeva D. Boshlang'ich ta'limgiz nazariyasi diagnostikasi	327
Sultanov T. M. Ilk boshlang'ich ta'limgiz pedagogikasining muhim jihatlari va izohi	335
Maxmudova D. M., Mirxalilova N. A. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari	340
Ochilov F. I., Ashurova F. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish usullari	347
Hikmatov I. M., Ochilov F. I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari	355
Rustamova N. X. "Boshlang'ich ta'limgizda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" fanining ahamiyati	364
Usmonova Q. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzlusizlik	370
Karshiyeva D. E. Boshlang'ich ta'limgiz sotsiologiyasi mazmuni	376
Abdurashidov A. Maktabgacha ta'limgiz pedagogikasining dolzarb muammolari	382
Nazirova G. M. Rivожлантирувчи марказ: Xalq kўшиклари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида	392
Эсонова М. А. Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении	402
Арсланова Г. Дж., Панкина М. С. Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников	409
Арсланова Г. Дж., Сытина Н. В. Инклюзивное обучение в начальном образовании	414

ФИЗИКАЛЫҚ ТЁРБИЯ ҲЭМ СПОРТ

Alimardonov A. N. "Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o'yinlarining ahamiyati"	419
Alimov Q. A., Daminov I. A. Sog'lom turmush tarzinining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati	425
Toshbayev X. Y. Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo'llari	430
Jo`rayeva S. B. Kurashchi qizlarlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari	434
Mengliboyeva O. A. Xalq pedagogikasida bolalarning ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти	438
Toshboev B. SH. Sport tibbiyotida qo'llaniladigan tibbiy nazorat usullari	443
Alimov Q. A., Xo'jayev O'. X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	446
Xo'jayev A. Q. Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarining texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	451
Payg'amova S. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish	455
G'afforova D. B. Gandbolchilarning hujum va himoyadagi tehnik usullarini rivojlantirish metodikasi	459
Худайберганов О. К. Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан	463
Ашурев Б. Ш. Стритбол в Республике Узбекистан	469



BOSHLANGICH TA'LIM SOTSILOGIYASI MAZMUNI

Karshiyeva D. E.

CHDPU Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti

Tayanch so'zlar: boshlangich ta'lim sotsiologiyasi, ta'limning yosh avlodga ahamiyati, ta'lim sotsiologiyasining strukturasi, milliy goya va milliy mafkurani shakllantirishda ta'lim sotsiologiyasining axamiyati.

Ключевые слова: социология начального образования, значение образования для подрастающего поколения, структура социологии образования, значение социологии образования в формировании национальных идеалов и национальной идеологии.

Key words: sociology of elementary education, the importance of education for the young generation, the structure of sociology of education, the importance of sociology of education in the formation of national ideals and national ideology.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng fan va texnika taraqqiyoti yanada rivojlana boshladi. Har bir kasb egasi nafakat o'z sohasidagi kasbiy bilimlarni puxta egallashi va katta tajribani orttirishi kerak. Chunki jamiyat hayotidagi voqealar insonlarning ahloqi, dunyoqarashi, ma'naviyati, tafakkuri, hayot tarzi to'g'risidagi axborotlarga va bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bunday bilimlarni o'rta maktabdan oldin bog'cha va otona tarbiyasida bilishlari kerak. Undan keyingina mактаб, litsey va kollejlarda gumanitar va sotsial fanlardan bilim olish hisobiga o'zларining boshlang'ich ta'limini olishga harakat qiladilar. Bu sohada alohida shaxsdan va rivojlanish qonuniyatlarini nafaqat nazariy jihatdan balki aniq konkret tadqiqotlar orqali o'рганиладиган сotsiologiya fani bilimlarini hozirgi kunning dolzarb talablarini eng aniq va xalqchil qilib aniqlab beradi.

Sotsiologiya - insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning jaralmas tarkibiy qismidir. Afsuski, kommunizm mafkurasining vakillari kibernetika, psixologiya, politologiya kabi fanlar qatorida sotsiologiyani ham inkor etib, uni sotsializmga zararli yolg'on fan qatoriga qo'shib, ko'p yillar mobaynida jahon xalqalarining durdonasi, ma`naviy va madaniy boyligi bo'lgan bu fanning va uning namoyondalarini taxqirladilar.

Natijada jamiyatning eng katta boyligidan - ijtimoiy fikrlarning har tomonlama va chuqur o'рганишдан, ijtimoiy taraqqiyot borasida axborotlartizimini yaratishdan va oxir oqibatda ijtimoiy hayotni aniq ma'lumotlariga, to'g'riroq'i xalq fikriga



tayangan holda ilmiy asosda boshqarishdan mahrum qildilar. Mustaqillik tufayli sotsiologiya faniga keng yo'l ochildi.

Mustaqillik davlatimizning mustaqil erkin va hur fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolarimizga, ayniqsa, yosh avlod hozirgi davr talabiga javob bera oladigan insonlarga sotsiologiya darsligi juda zarur va kerakdir.

Hozirgi zamon kishisi o'zi yashayotgan makonning ijtimoiy sharoitini jamiyat a'zolarida yashirinib yotgan sirlarni, huquq va ahlok normalarini bilmasdan turib, hayotdan o'z o'rmini topa olmaydi.

Sotsiologiya - bu jamiyatning barcha qirralarida o'ziga xos anatomiya va fiziologiyasidirkim, ular inson xayotidagi me'yoriy va patalogik holatni aniqlashga va oxir okqibatda insoniyatni noxush holatdan qiyinchiliklardan qutulish yo'lini ko'rsatadi. O'tmishda sotsial gigiena deb tushunishlari ham beziz emas.

XXI asrda sotsiologiya va uning yo'nalishidagi fanlarga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Oxirgi vaqtarda sotsiologiya bo'yicha yirik mutaxassislar, olimlar, ular bu fanning har xil tarmoqlari va bo'limlari bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy ishlarni yaratmoqdalar.

O'zbekistonda sotsiologiya endigina kurtak ochib o'ziga taraqqiyot yo'lini qidirayotgan ekan, chikqib kelayotgan yosh sotsiologlar uchun jamiyatdagi sotsial, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etishda o'z bilim va malakalarini oshirish uchun mutaxassislik fanlaridan darslik muammolari bir oz qiyinchilik tug'dirmoqda. Darslik vatanimiz mustaqilligi kabi sotsiologiya fanining to'la mustaqil, ya'ni o'zining nazariy va amaliy qismiga ega bo'lganligi va jamiyat taraqqiyotini belgilashda uning roli vazifalari beqiyos ekanligini namoyon qiladi. Shu o'rinda hozirgi kunda O'zbekistonimiz professor-o'qituvchilari sotsiologiya mutaxassisligi bo'yicha o'quv qo'llanmalarini nashrdan chiqarmoqdalar. Unda sotsial bilimlarning barcha sohalarda aniqlash uchun sotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti, sub'ekti va predmeti, strukturasi, shaxsning roli, jamiyatdagi sotsial muammolar yorqin ifoda etilgan.

Sotsiologiya fanining rivoj topishi kundan-kunga o'smoqda. Haqiqatan ham sotsiologiya orqali jamiyatdagi sotsial ijtimoiy iqtisodiy, madaniy va strategik muammolarni o'rganish va ularni ijobiy hal qilish uchun sotsiologiya fani hozirgi kunning jamiyat va shaxs ularning ijtimoiy ongini shakllantirish uchun kuchli xizmat qilmog'i kerak. Agar yosh avlodni sotsiologik tadqiqotlar orqali anketa yoki interv'yu, suoqlash usullari bilan har xil salbiy oqibatlardan saqlab qolish mumkin. Va to'g'ri xulosalar chiqarish ularni dunyoqarashlarini ijobiy hal etish sotsiologiya fanining mustaqil O'zbekiston davlatini rivojlantirishga qo'shgan hissasidan biri bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash kadrlar tayyorlash tuzilmasi



va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: "Ta'lim to'g'risi" dagi qonunni joriy etishni (1992-y); yangi o'quv rejali, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'limotni ishlab chiqarishni; o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni; yangi tipdag'i ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim vazirligi ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda 159 ta, shu jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud. Shundan:

- universitet — 28 ta;
- institut — 47 ta;
- akademiya — 3 ta;
- konservatoriya — 1 ta;
- filial — 26 ta;
- xorijiy OTM va uning filiallari — 30 ta;
- nodavlat OTM — 24 ta.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishini muhim omillari quyidagilardan iborat:

- respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishdan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi qaror topganligi;
- milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an`analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
- O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqeい va obrу-e`tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Mazkur dasturni maqsadi- ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy kurashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demoqratik davlatlar darajasida yuksak ma`naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini



yagona o'quv-milliy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demoqratik huquqiy davlat qurishi jarayonlariga moslash;

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

yangi ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishning kafolatlarini, ustivorligini ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish;

uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etish;

kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma bosqich ro'yobga chiqariladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlanitirish printsiplari quyidagilardan iborat;

- Ta'limning ustivorligi- uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektni nufuzi;
- Ta'limning demoqratlashuvi- ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi.
- Ta'limning insonparvarlashuvi- inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lган turli tuman ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustivorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;
- Ta'limning ijtimoiylashuvi- ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- Ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tarix, xalq an`analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;



- Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

1. mактабгача та'лим ва тарбија;
2. умумиј о'рта ва о'рта максус та'лим;
3. професијал та'лим;
4. олий та'лим;
5. олий та'лімдан кейинги та'лим;
6. кадрларни qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
7. maktabdan tashqari ta'lim.

Kishilar amaliy qayta o'zgartiruvchilik faoliyati ularni ijtimoiy ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish bilan bog'likligi moddiy madaniyatning o'ziga xos sohalariga bo'linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadqiqotlarga zaruriyat tug'dirdi. Moddiy madaniyatning birinchi katta sohasi bu mehnat qurollarni ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari texnika qurilmalari. Xullas suniy sharoitda yaratilgan narsalarmng barchasi, shuningdek, moddiy madaniyatning bu kismi ishlab chiqarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnikasi asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatning maxsus kismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faoliyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy ko'lami, ularning texnik bilimi ishlab chiqarish madaniyati jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini tashkil qiladi. Moddiy madaniyatning ikkinchi sohasi ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi ko'plab ijtimoiy institutlar tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog'lik. Bu turli hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari ijtimoiy boshqaruv shakllari ijtimoiy tashkilotlar ta'lim yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish sog'liqni saqlash va dam olish, bo'sh vaqt va ko'ngil ochish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o'zgartiradi va qayta shakllantiradi. Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insoning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaqat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini tadqiq qilmasdan balki avlodlarning o'zaro munosabatlari muammolarini ham tahlil qiladi. Inson ulg'ayishi va jamoaga mansubligi me'zondan boshqa jamiyat madaniyati a'zosini sifatida shakllanishi mumkin. Ikki xil ba'zan insonni ikki turdan ham ko'proq



madaniyatga mansubligi uni ko'p tomonlama turli madaniy olamga mansub qiladi. Ammo bunda ma'lum xavf ham yashirin bo'ladi. Ya'ni ulg'ayuvchi avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatlarning aralashuvi yoshlarni o'zining madaniyat manbaidan ayrilishiga, o'z etnik ananalarini tushunmasligiga olib keladi. O'z milliy madaniyatidan mahrum kishi manqurtga aylanadi va har qanday madaniyatga ham befarq munosabatda bo'ladi. Shuning uchun meros madaniyatning uzlusiz an'anaviy yangilanish jarayonini ta'minlash o'ta muhim. Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi dorasidagi inson hayot faoliyatining genetik (irsiy), jismoniy (somatik) tibbiy biologik xususiyatlari haqidagi jamiyat yuzaga keladigan va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari aks etuvchi madaniy an'analar va sog'lom odatlarga to'g'ri keladigan insonning tartibli ovqatlanish va turmush tarzi haqidagi bilimlar majmui bo'lgan inson evolyutsiyasi muammolari ham mansub.

Adabiyotlar:

1. Бакова К.Ж., Фурсова Т.А., Знаменская Н.А., Гречко Е.М., Методические указания о педагогической практике. Бишкек, 2013.
2. Мухамедов Ф., Ходжамкулов У., Тоштемирова С. Педагогик таълим инновацион кластери. Монография. –Т.: Университет, 2020. – 280 б.
3. Tekaligne T. Factors affecting the effectiveness of clustering school program in teaching learning process: The case of Yeki Woreda and Teppi Town Cluster Schools (Unpublished Masters Thesis) // Addis Ababa University. Addis Ababa, 2013. – 63 p.
4. Giordano E.A. School cluster and teacher resource centres. UNESCO: International Institute for Educational Planning. – Paris: 2008. – 151 p.
5. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери // пед. фан. док. дисс. (DSc) – Чирчик, 2020. .

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola gumanitar-ijtimoiy fanlarga bag'ishlangan bo'lib, unda mustaqilligimiz davrida sotsiologiya faniga berilayotgan e'tibor, sotsiologiyaning jamiyatimizda tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur maqolada ta'lim tizimimizda, xususan, boshlang'ich ta'limda sotsiologiyaning o'r ganilishi haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan va ilmiy xulosalar chiqarilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена гуманитарным и общественным наукам, и в ней освещается значение социологии в период нашей независимости, роль и значение социологии в нашем обществе. Также в данной статье были сделаны мнения и научные выводы об изучении социологии в нашей образовательной системе, в частности, в начальном образовании.

SUMMARY

This article is dedicated to humanities and social sciences, and it highlights the importance of sociology in the period of our independence, the role and importance of sociology in our society. Also, in this article, opinions and scientific conclusions were drawn about the study of sociology in our educational system, in particular, in primary education.